


RAQAMLAR


- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 10,0 trln. so'm, o'sish sur'ati 102,7 % qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmining o'sish sur'ati 102,9 % ni tashkil qildi. Shu jumladan dehqonchilik mahsulotlari 105,3 % ni va chorvachilik mahsulotlari 101,2 % ni tashkil qildi.

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra 2019 yilning yanvar-iyun oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmi 10030,9 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,7 %ni, shu jumladan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda dehqonchilik va chorvachilik va bu soxada xizmat ko'rsatish – 9628,2 mlrd. so'mni (102,6 %), ovchilik – 0,2 mlrd. so'mni (107,2 %), o'rmon xo'jaligi – 386,4 mlrd. so'mni (104,0 %), va baliq xo'jaligi – 16,1 mlrd. so'mni (117,2 %) tashkil qildi

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulotlari (xizmatlar)ning hajmi



Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)lar hajmining hududlar kesimida taqsimlanishi (foizda)




Viloyatning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Pastdarg'om tumanining ulushi 10,7 % ni tashkil etdi va tumanlar bo'yicha yetakchilik qilmoqda, Tayloq va Kattaqo'rg'on tumanlari mos ravishda 10,0 % va 9,6 % ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egalladi. Eng kam ulush bilan Kattaqo'rg'on shahri (0,6 %), Samarqand shahri (0,9 %) va Qo'shrabot (3,3 %) tumanida qayd etildi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari


2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmining o'sishi 2018 yilning mos davriga nisbatan 102,9 %ni, shu jumladan, dehqonchilik mahsulotlari 105,3 % ni, chorvachilik mahsulotlari 101,2 % ni tashkil qildi.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi (foizda)



Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiy hajmining 74,9 % – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 21,9 % – fermer xo'jaliklariga, 3,2 % – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida (foizda)



Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.

Dehqonchilik

2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 3678,3 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 105,3 %ni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 38,3 %ni tashkil qildi.




2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	tonna	o'sish sur'ati %da	tonna	o'sish sur'ati %da	tonna	o'sish sur'ati %da	tonna	o'sish sur'ati %da
Don ekinlari	433853	108,9	356713	119,4	73996	77,0	3144	86,9
Kartoshka	295924	103,4	16354	103,3	279298	103,4	272	102,6
Sabzavotlar	279727	101,6	49176	82,8	228866	106,5	1685	139,4
Poliz	13420	104,6	2511	92,8	10903	107,7	6	100,0
Meva va rezavorlar	111705	112,9	24616	179,2	81683	97,8	5406	3,3 m
Uzum	5444	2,5 m	4848	2,9 m	484	100,0	112	189,8

Hosilni yig'ib olish. 2019 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklarda 433,9 ming tonna (108,9 %) don ekinlari ishlab chiqarildi, 295,9 ming tonna (103,4 %) kartoshka kavlab olindi, 279,7 ming tonna (101,6 %) sabzavotlar, 13,4 ming tonna (104,6 %) poliz, 111,7 ming tonna (112,9 %) mevalar va rezavorlar, 5,4 ming tonna (245,7 %) uzum yig'ib olindi.


Asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi




Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida kartoshka umumiy hajmining 94,4 %ni, sabzavotlarning 81,8 %ni, polizning 81,2 %ni, mevalar va rezavorlarning 73,1 %ni, ular tomonidan ishlab chiqarildi. Don ekinlari va uzumning esa asosiy qismi fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarildi, ishlab chiqarilgan ushbu mahsulotlar hajmining 89,1 %ni uzum 82,2 %ni don ekinlari ular hissasiga to'g'ri keladi.

2019 yil yanvar-iyun oylarida hududlar kesimida asosiy turdagi dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


Don ekinlari (ming t)




Kartoshka (ming t)




Sabzavotlar (ming t)




Poliz (ming t)



Mevalar jami (ming t)



Uzum (ming t)



Chorvachilik




2019 yilning yanvar-iyun oylarida chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 5937,4 mlrd. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 101,2 %ni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiy hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 61,7 %ni tashkil etdi.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 140,6 ming tonna go'sht (2018 yilning yanvar-iyunga nisbatan 104,0 %ga ko'p), 618,7 ming tonna sut (102,0 %ga), 623,9 mln.dona tuxum (101,1 %ga) ishlab chiqarildi.

2019 yilning yanvar-iyun oylarida ishlab chiqarilgan asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlari

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %	miqdori	o'sish sur'ati %
Go'sht tirik vaznda, ming t	140,6	104,0	22,3	2,6M	111,2	93,0	7,1	100,6
Sut, ming t	618,7	102,0	59,6	181,6	558,5	97,5	5,9	90,4
Tuxum, mln. dona.	623,9	101,1	191,5	193,7	245,8	89,2	186,6	76,9
Jun, ming t	2,2	105,6	0,1	107,8	2,0	105,8	0,1	100,0
Qorako'l, ming dona.	33,5	90,8	2,0	107,5	17,5	103,9	14,0	76,9
Pilla, ming t	2,7	132,8	2,7	132,8				


Asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishda xo'jalik toifalarining ulushi (foizda)




Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 79,1 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 90,3 %, tuxumning 39,4 %, junning 89,6 %, qorako'l terining 52,4 % ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

Hududlar kesimida asosiy turdagi chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish


Go'sht (ming t)




Sut (ming t)



Tuxum (mln. dona)



Pilla (tonna)



Chorva mollari va parrandalar bosh soni

2019 yilning 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollarning umumiy bosh soni 1528,9 ming boshga, shu jumladan sigirlar 662,9 ming boshga, qo'y va echkilar 2326,0 ming boshga, parrandalar 12015,4 ming boshga yetdi.



2018 yilning mos davri bilan solishtirilganda barcha toifadagi xo'jaliklarda yirik shoxli qoramollar bosh soni 1,3 ming boshga (0,1 %ga), shu jumladan sigirlar 2,6 ming boshga (0,4 %ga), parrandalar 0,2 ming boshga (0,2 %ga) ko'paydi. qo'y va echkilar esa 16,6 ming boshga (0,7 %ga), kamaydi.

2019 yilning 1 iyul holatiga xo'jalik toifalari bo'yicha chorva mollari va parrandalar bosh soni

	Barcha toifadagi xo'jaliklar		shu jumladan:					
			fermer xo'jaliklari		dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari		qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	
	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %	ming. bosh	o'sish sur'ati %
Yirik shoxli qoramollar	1528,9	100,1	63,1	93,9	1456,8	100,4	9,0	97,8
<i>shu jumladan</i>								
sigirlar	662,9	100,4	24,6	106,5	637,3	100,3	1,0	55,6
Qo'y va echkilar	2326,0	99,3	128,6	100,1	2020,4	100,0	177,0	91,5
Otlar	25,4	101,0	2,6	119,2	22,4	100,1	0,3	63,9
Parrandalar	12015,4	107,7	3699,1	153,7	4662,3	92,0	3654,0	99,1

2019 yilning 1 iyul holatiga yirik shoxli qoramollar bosh soni to'g'risidagi ma'lumotlarni xo'jalik toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, yirik shoxli qoramollarning 4,1 % fermer xo'jaliklari hissasiga, 95,3 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 0,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini qayd etib o'tish lozim, shunga mos ravishda qo'y va echkilarning umumiy sonidan 5,5 % fermer xo'jaliklariga, 86,9 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 7,6 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi, shuningdek parrandalar umumiy sonidan 30,8 % fermer xo'jaliklariga, 38,8 % dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 30,4 % qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri keladi

Chorva mollari va parrandalar bosh sonining xo'jalik toifalari bo'yicha ulushi (foizda)




2019 yilning 1 iyul holatiga hududlar kesimida chorva mollari va parandalar bosh soni


Yirik shoxli qoramollar (ming bosh)




shundan, sigirlar (ming bosh)



Qo'y va echkilar (ming bosh)



Parrandalar (ming bosh)



Qishloq xo'jaligi va ekologiya
statistikasi bo'limi

• 71-230-85-30
• 71-230-85-31